

QOVUNNING ASOSIY ZARARKUNDALARI TUR TARKIBI VA UCHRASH DARAJASI

Xolmurodov Erkin Avazovich, q/x.f.d., professor

Orcid ID: 0000-0003-0425-7375

Elmurodova Mohichehra Jamil qizi, magistr

Toshkent davlat agrar universiteti

Аннотация. В статье представлены видовой состав, вредоносность и распространенность вредителей дыни.

Ключевые слова: дыня, виды-вредителей, видовой состав, уровень распространенности, дынная муха (*Myiopardalis pardalina* Big.), бахчевая коровка (*Epilachna chrysomelina* Fabr.).

Annotatsiya. Maqolada qovun zararkunandalarning tur tarkibi, zarari va uchrash darajasi keltirilgan.

Kalit so'zlar: qovun, zararkunanda turlari, tur tarkibi, uchrash darajasi, Qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina* Big.), Poliz qo'ng'izi - (*Epilachna chrysomelina* Fabr.).

Abstract. The article presents the species composition, harmfulness and prevalence of melon pests.

Keywords: melon, pest species, species composition, prevalence level, melon fly (*Myiopardalis pardalina* Big.), melon ladybird (*Epilachna chrysomelina*).

Kirish. Qovun – qovoqdoshlar oilasi, bodring turkumiga mansub byuir yillik o't o'simliklar turi; poliz ekini. Mevasi tarkibida 8-20% quruq modda, 18% qand (saxaroza), 0,1-0,7 kletchatka, folat kislota, kaliy, natriy, kalsiy, magniy, temir, fosfor, oltingugurt va boshqa mikroelementlar bor. Hozirgi kunda O'zbekistonda qovunning 56 navi yetishtiriladi.

Poliz ekinlarini yetishtirishda zararkunandalarning keltiradigan zararlilik darajasi yuqori hisoblanadi. Qovun zararkunandalari hudud sharoitida barcha poliz ekinlari yetishtiradigan fermer va dehqon xo'jaliklari maydonlariga tarqalish areallarining kengayishini hisobga olgan holda tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Zararkunandalarga karshi kurash tadbirlarini o'tkazishda asosan fenologik rivojlanishini o'rganishni taqozo etadi [4, 5].

Kuzatuvlar asosan Toshkent viloyati poliz ekinlarida olib borildi.

Materiallar va uslublar. Hudud sharoitida poliz ekinlari dalalarida vegetatsiya davrining boshidan oxirigacha qovun pashshaning rivojlanish fazalari, dinamikasi va bioekologik rivojlanish xususiyatlarini o'rganish va fenogramma tuzishda A.N.Kojanchikov, B.V.Dobrovolskiy, Ye.A.Dunaev, K.K.Fasulati, V.F.Paliy uslublaridan foydalanildi.

Natijalar va munozara. Dastlabki kuzatuvlar yillar bo'yicha taqqoslanib, o'rtacha ko'rsatkichlar olindi. Zararkunandalar turli tutqichlar yordamida, jumladan, yorug'lik tutqichlar (BUF-30) va achitqilar yordamida tutilib, nazorat har 3-5 kun oralatib o'tkazildi va tutqichlarga tushgan zararkunandalar yig'ilib, laboratoriyada tur tarkibi aniqlandi.

Toshkent viloyati poliz ekinlari ekilgan dalalardan aniqlangan turlar quyidagicha ro'yxat asosida keltirildi.

I. *Noctuidae* oilasi

1. Kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Den. et Sehiff)
2. Undov tunlam (*Agrotis exelamationis* L)
3. S-qora tunlam (*Xestia C nigrum* L)
4. Ipsilon tunlami (*Agrotis ipsilon* Hufn)
5. Sebarga tunlami (*Discestra trifolii* Hufn)
6. Kunduzgi ola tunlam (*Acontia luctuosa* Den et Schiff)
7. Yovvoyi tunlam (*Euxoa conspicua* Hbn)
8. G'o'za tunlami (*Heliothis armigera* Hbn)
9. Karadrina (*Spodeptera exigua* Hbn)
10. Gamma tunlami (*Autographa gamma* h)

11. Poliz tunlami (*Laconobia oleracea*)

II. *Pyralidae* oilasi

12. O'tloq parvonasi (*Purausta sticticalis*)

III. *Aphididae* oilasi

13. Poliz shirasi (*Aphis gossipi*)

IV. *Tetranenchidae* oilasi

14. O'rgimchakkana (*Tetranychus telarius* L.)

V. *Coccinellidae* oilasi

15. Poliz qo'ng'izi - (*Epilachna chrysomelina*)

VI. *Trypetidae* oilasi

16. Qovun pashshasi (*Myiopardalis pardalina* Big.)

So'ruvchi zararkunandalar orasida poliz shirasi, o'rgimchakkana qovun va tarvuz ekinlarida uchrashi aniqlandi. Kemiruvchi zararkunandalar orasida birinchi darajali hisoblangan poliz qo'ng'izi, shuningdek o'tloq parvonasining lichinkalari, gamma tunlami, karadrina va poliz tunlamining lichinkalari qayd qilindi. Qovoqdoshlar oilasi ekinlarining mevalarini zararlashiga ko'ra dominant tur sifatida ashaddiy zararkunanda hisoblangan qovun pashshasini keltirib o'tishimiz mumkin. Bu zararkunandalarning Sirdaryo viloyati bo'ylab tarqalish sabablari hali to'liq aniqlanmagan. Sirdaryo viloyati poliz ekinlarida uchraydigan zararkunanda hasharotlarning biologiyasi, ekologiyasi va tarqalish areali o'rganib chiqilmoqda.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida qovun dalasida 1000 ga yaqin hasharotlar borligi aniqlandi va 16 turga mansubligi keltirildi. Ulardan Noctuidae, ya'ni tunlam kapalaklar oilasiga 11 tur, Pyralidae oilasiga 1 tur, Aphididae oilasiga 1 tur, Tetranenchidae oilasiga 1 tur, Coccinellidae oilasiga 1 tur, Trypetidae oilasiga 1 tur mansubligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan xulosa qilib aytganda, poliz ekinlarida bir necha turdagi zararli hasharotlar rivojlanib yetishtirilayotgan hosilning miqdori va sifatiga katta salbiy ko'rsatmoqda. Ularning tur tarkibi va tarqalishi hamma viloyatlarda bir xil emas. Ba'zi viloyatlarda karadrina tarqalgan bo'lsa, aksincha boshqa yerlarda oqqanot, shira va tripslar hamda o'rgimchakkana tarqalgan. Zararkunandalarning zararlash darajasini ortishini oldini olishda, uning miqdorini ekinlar hosiliga putur yetkazmaydigan holatda saqlab turadigan omillardan biri va eng asosiysi, u tarqalgan yoki tarqalish xavfi bo'lgan maydonlarda ularning turlarini bilish muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Дунаев Е.А. Методы эколого-энтомологических исследований. – Москва, 1997. МосгорСЮН. – 44 с.
3. Кожанчиков И.В. Методы изучения экологии насекомых. – Москва, 1961. Высшая школа, – 286 с.
4. Палий В.Ф. Методика изучения фауны и фенологии насекомых. - Воронеж, 1970. - 189 с.
5. Фасулати К.К. Экология и хозяйственное значение насекомых. – Ленинград, 1961. – 231 с.
4. Юсупов Р.О. Биология и вредоносность дынной мухи и разработка мер борьбы с ней. Автореф.докт.фил.с-х.наук. 06.01.09. - Ташкент, 2018. – 20-25 с.
5. Yusupov R.O. Qoraqalpog'iston sharoitida qovun pashsha (*Myiopardalis Pardalina* Big.) zararkunandasining fenologik rivojlanish xususiyatlari. Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini. Maxsus son [2]. 2023.